

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

TASVIRIY SAN'ATINING ESTETIK MOHIYATI

Atamuratova Dilfuza Batirovna

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
Mahobatli rangtasvir mutaxassisligi 2-kurs magistri*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'atining estetik mohiyati va ahamiyati xaqida olib berishga harakat qildindi. Tasviriy san'atining kelib chiqishi uning insonlarga ta'siri va hayotidagi o'rni o'rganib chiqilgan. Mazkur maqola tasviriy san'at ixlosmandlarini qiziqtirgan va o'rganishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, estetik mohiyat, zamonaviy rangtasvir, badiiy jarayon.

Аннотация. В этой статье была сделана попытка раскрыть эстетическую природу и значение изобразительного искусства. Исследовались истоки изобразительного искусства, его влияние на людей и роль в их жизни. Эта статья посвящена информации, которая может быть интересна и интересна любителям изобразительного искусства.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, эстетическая сущность, современная живопись, художественный процесс.

Annotation. In this article, an attempt was made to reveal the aesthetic nature and significance of fine arts. The origins of fine art, its influence on people and its role in their lives have been investigated. This article focuses on information that may be of interest and interest to lovers of fine arts.

Keywords: Fine art, aesthetic essence, modern painting, artistic process.

Tasviriy san'at haqida so'z borar ekan, dunyoni san'at qutqaradi deb bejiz aytilmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Estetik jozibaga ega bo'lgan tasviriy san'at asari insonning ruhini ifodalaydi, qalbiga tegina oladi. Aynan shu xususiyati tasviriy san'atni boshqa san'at turlaridan ajratib turadi. Tadqiqotlarga ko'ra, qadimgi tasviriy san'at san'atning eng yuqori shakli hisoblanadi, chunki u amaliyotga asoslangan boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq, badiiy tasavvurni to'liq namoyish etishga kengroq imkon yaratadi. Yana bir ajralib turadigan xususiyati esa kartinani yaratishda hissasi qo'shilgan insonlar soni. U hoh rassom bo'lsin hoh asardagi naturami barchasining ushbu kartinada mehnatlari bor ularning ruhlari aks ettirilgan. Masalan, yurtimizdag'i ko'plab rassomlarning inson qalbiga osongina yo'l topa oladigan ijodiy asarlarini namuna qilib ko'rsatish mumkin.

K.Malevichning shogirdi Usto Mo'min Samarqandga 1921 yilda kelgan. Yurtimizning go'zal manzarasi, ajoyib me'moriy yodgorliklar, rango-rang liboslar va taqinchoqlar uni o'ziga rom qildi. Usto Mo'min o'lka madaniyatini o'rganib borishiga qarab, xalq ustalarining san'atinigina emas, balki O'rta Osiyoning mumtoz miniaturalari merosini ham zo'r qiziqish bilan o'rgandi. 1925 yilda u Toshkentga ko'chib o'tdi. O'zbekistonning xalq, milliy madaniyatiga, O'rta Osiyoning o'ziga xos va boy naqshlariga singib ketgan yuksak qobiliyatli rassom grafika va rang-tasvir bo'yicha eng katta usta o'z ijodiyotida Italiya va rus badiiy ananalarini o'zbek san'ati ananalari bilan bir butun ajralmas ananaga uyg'unlashtirishga intildi. Uning "Bahor" nomli rangtasvir asari ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. U bu asarida ikki o'zbek o'g'lonlarining tasvirini aks ettirgan. Bu obrazlarda o'zbeklarning o'ziga hosligi, plastik jihatdan to'g'ri topilganini ko'rishimiz mumkin. Kompozitsiya jihatidan klassik mavqeiga ega, juda

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

muvafaqqiyatli topilgan. qahramonlar yuzidagi chuqur ruhiy holatni, ularning yuzidagi katta yorug` ko`zlarida, mehnatda toblangan yuz chexrasida xaykalga xos o`z ifodasini topgan. Sharq falsafasi ham uning dunyoqarashi shakllanishida o`ziga xos maktab bo`ldi.

Yurtimiz tasviriy san'atining rivojlanishiga hissa qo'shgan va O'zbekistonda yashab ijod qilgan yana bir rassom Karahan Nikolay Giorgiyevich. U ko'plab asarlarida O'zbekiston manzaralarini, o'zbek xalqining milliy urf-odatlari, kundalik turmush tarzilarini tasvirlagan. Uning yaratgan asarlarini kuzatadigan bo'lak, yurtimizning go'zal manzalarini mohirlik bilan tavirlanganini ko'rishimiz mumkin. Rangtavir asarlardagi ranglarning yorqinligi, nur soya o'yinlarini ustalik bilan ifodalanishi O'zbekitonning qanchalik quyohli yorqin mamlakat ekanligini ko'ratib beradi. Uning ko'plab asarlari O'zbekiston muzeylarida saqlanadi. Uning mashxur asarlaridan biri "Ishga ketishyapti", "Uyda ikki qiz" asarlaridir.



Nikolay Karaxan. *Uyda ikki qiz. Mato moy bo'yoq.*



"*Tog'da tong. Etüd*". 1950-1960 yillar. Karton, moy bo'yoq.

Tarixiy, madaniy va ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g'oyalari, yangilanish tamoyillari me'morlik, tasviriy va amaliy san'at sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Baxtiyor Maxkamov zamonaviy o'zbek rangtasvirida o'z yo'nalishiga ega serqirra ijodkorlardandir. Uning ijodiy izlanishlari va o'ziga xos dunyoqarashi talqini yaratgan asarlarida namoyon bo'lmoqa. Baxtiyor Maxkamovning rasmlari kartinalari g'oyaviy-estetik, falsafiy mazmun bilan boyitilib tasvirlangan. Ularning tashqi go'zalligi ramzlar va metaforalarga to'la bo'lib, tomoshabinni ularning mazmunini taxmin qilishga, o'z tasavvurlarini faollashtirishga undaydi. Shu bilan birga, uning asarlari o'ziga xos sifati bilan ajralib turadi. B.Maxkamovning ob'ektiv va estetik ahamiyatga ega bo'lgan, yuksak san'at hodisasi bo'lgan asarlari nafaqat milliy, balki umuminsoniy madaniyatga ham tegishli. Shular kabi ko'plab rassomlarni misol keltirish mumkin.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali



“Jannatda qish” Mato.m.b. (150x70sm), (150x150), (150x70sm) Triptix.

Qadim zamonlardan beri tasviriy san'at insoniyatning ma'nnaviy-madaniy tajribasini, avvalo estetikasini, diniy qarashlar, osha davrning siyosati ya'ni shu kabi muhim hodisalarini tarixga muhrlashning va insoniyatlarning qalbiga singdirishning eng samarali usuli bo'lib kelgan. Jamiyat o'zining estetik mohiyati bilan belgilanadigan san'atning kuchli samarali kuchidan turli xil ijtimoiy-utilitar maqsadlarda – diniy, siyosiy, terapeutik, epistemologik, axloqiy va boshqalarda foydalanishni o'rgangan. Nafaqat Osiyo balki Evropa hududlarida ham tasviriy san'at fan sifatida estetikaning muhim ob'eqlaridan biri bo'lib xizmat qilib kelgan. Tarixiy jihatdan o'rghanadigan bo'lsak, tasviriy san'at asarlari madaniyatida estetika har doim san'atning mohiyatini tashkil etgan. Insoniyat sivilizatsiyasi tarixini kuzatib, estetik maqsadlar uchun yaratilgan turli xil asarlar namunalarini topish mumkin.

Estetika tasviriy san'atning mohiyati va xususiyatlarini tushunish uni samarali baholash va talqin qilishning kalitidir. Tasviriy san'atning estetikasi vizual jozibadorlik, hissiy ta'sir va noyob talqinni o'z ichiga olgan bir nechta asosiy omillar bilan belgilanadi. Ushbu jihatlar san'at asarlarining umumiy go'zalligi va qiymatini belgilaydi. Biz tasviriy san'at tarixiga nazar tashlasak, uning kelib chiqishini qadimgi davrlardan boshlab, tasviriy san'atni turli badiiy an'analarda muhim rol o'ynagan paytdan boshlab kuzatish mumkin. Masalan uyg'onish davri gumanizm va go'zallikka intilishga urg'u berib, tasviriy san'atning rivojlanishi va tushunilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Vaqt o'tishi bilan tasviriy san'at zamonaviy badiiy harakatlarda rivojlanib, yangi istiqbollar va yondashuvlarni namoyish etdi.

Tasviriy san'at, boshqa barcha faoliyat turlaridan farqli o'laroq, insonning ichki estetik mohiyatini uning yaxlitligida ifoda etadi. Tasviriy san'at asarining estetik tajribasi, shuningdek uni yaratish insonni butun kuchini talab qiladi, chunki u yuqori bilim qadriyatlarini, issiy idrokini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at asarlarini yaratish va idrok etishda insonning barcha ma'nnaviy kuchlarining bu ichki birligi estetik ong kuchi bilan ta'minlanadi.

Tasviriy san'atning sintetik tabiatni, asosan, barchani hayratga solgan haqiqatni, ma'nnaviy faoliyatning barcha turlari orasida insonga ijtimoiy ta'sir kuchi bilan unga teng keladigan hech narsa yo'qligini tushuntiradi. Bu antik davrlarda allaqachon ma'lum bo'lgan. Tasviriy san'at-bu vizual asarlar ko'rinishidagi ijodkorlik va tasavvurning ifodasidir. U asosan amaliy yoki tijorat maqsadlarida emas, balki estetik tarkib uchun yaratilgan. Tasviriy san'at odatda tomoshabinga

ma'lum bir estetik, intellektual yoki hissiy ta'sirga erishish uchun yaratiladi. Biroq, u aloqa vositasi sifatida ham ishlatalishi mumkin. Ta'rifga ko'ra, u san'at va hunarmandchilikdan farq qiladi, chunki bu san'at turlari amaliy narsalarni estetik jihatdan yoqimli qilishga qaratilgan. Tasviriy san'at asrlar davomida mavjud bo'lib, shu vaqt ichida u texnika va uslubda rivojlanib bordi.

Asrlar davomida san'at va uning yaratilishi haqidagi tushunchamizni o'zgartirgan turli xil badiiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Uyg'onish davridan surrealizmgacha har bir yo'nalish o'ziga xos uslub va maqsadga ega edi. Ushbu uslublarning har biri zamонави tasviriy san'atni bugungi kungacha shakllantirishga yordam berdi va ko'plab rassomlarni o'z asarlarini yaratishga ilhomlantirdi.

Tasviriy san'at individual rassom uchun ham, umuman jamiyat uchun ham ko'plab maqsadlarga xizmat qiladi. Uning eng muhim funksiyalaridan biri bu bizning vaqtinchalik mavjudligimizni saqlab qolishdir. Bu g'oya g'orlar devorlarida topilgan qadimiy qo'l izlarida mukammal tarzda aks ettirilgan. Ushbu tarixdan oldingi izlar ota-bobolarimiz o'zlarining mavjudligining o'chmas izini qoldirishga intilishlari haqida kuchli eslatmadir. Shaxsiy merosga bo'lgan bu intilish bugungi kunda rassomlarni ilhomlantirishda davom etmoqda. Mazkur maqolada men birinchi navbatda tasviriy san'atning estetik mohiyatini ochib berishga harakat qildim,

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Abdullayev N. O'zbekiston san'ati tarixi. – T.: O'zbekiston faylasuflar ilmiy jamiyati, 2007. - 236 б.
2. Абдирасилов С.Ф., Бойметов Б.Б., Толипов Н.Х. Тасвирий санъат.–Т.: 2010 35 б
3. Zarifova Dilfuza Omon qizi., “Ranglarning fazoviy birikmalari va xususiyatlari”. Maqola. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 159–162, 2023.
4. Zarifova Dilfuza Omon qizi., “Baxtiyor Maxkamov ijodida milliy qadriyatlar timsoli”. Maqola. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Axborotnomasi. 4-son, 2024.
5. Rajabov Ulug'bek Nurillayevich “O'zbek milliy rangtasviri xorijlik rassomlar ijodida”. Maqola. Golden Brain, 2(7), 115-120, ISSN: 2181-4120, 2024.
6. “Р.Ҳасанов, “Тасвирий санъат асослари”, Тошкент, 2009 й. 11 б
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Давлат миллий наширёти, 2006.